

# O'zbekiston Respublikasidagi omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risida

## AXBOROT

<b>1</b>	<b>Anor bankga joylashtirilgan omonatlar kafolatlanishi</b>	Bankdagi omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi
<b>2</b>	<b>Omonatlarni kafolatlash asoslari</b>	O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni
<b>3</b>	<b>Kafolatlash hodisasi</b>	Bankning tugatilishi (yopilishi)
<b>4</b>	<b>Kafolatlanadigan omonatlar turi</b>	Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar, shu jumladan bank kartalaridagi mablag'lar, muddatli va jamg'arma omonatlar, shuningdek mazkur omonatlar bo'yicha hisoblangan foizlar
<b>5</b>	<b>Kompensatsiya miqdori</b>	Bank tugatilganda har bir omonatchiga, omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, jami to'lanadigan kompensatsiya miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
<b>6</b>	<b>Bir bankda omonatchining bir nechta omonatlari mavjud bo'lgan taqdirda to'lanadigan kompensatsiya miqdori</b>	Omonatning miqdori va valyutasidan qat'i nazar omonatchining ushbu bankdagi va uning filiallaridagi barcha omonatlari hisoblangan foizlar bilan jamlanadi va ular bo'yicha to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
<b>7</b>	<b>Bir nechta bank tugatilgan holda kompensatsiya miqdori</b>	Bir nechta bank tugatilgan taqdirda, mazkur banklarda omonatlari mavjud bo'lgan omonatchi har bir bank bo'yicha alohida tartibda 200 000 000 so'mdan oshmagan miqdorda kompensatsiya olish huquqiga ega
<b>8</b>	<b>Kompensatsiya to'lash muddati</b>	Bankni tugatish (yopish) to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 20 ish kuni mobaynida: 2026-yil 1-yanvardan boshlab – 15 ish kuni; 2027-yil 1-yanvardan boshlab – 7 ish kuni.
<b>9</b>	<b>Kompensatsiya to'lanadigan valyuta</b>	Chet el valyutasida qo'yilgan omonatlar bo'yicha kompensatsiya bank tugatilgan (yopilgan) sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo'yicha milliy valyutada (so'mda) to'lanadi
<b>10</b>	<b>Bog'lanish uchun ma'lumotlar</b>	Manzil: Omonatlarni kafolatlash agentligining: O'zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent sh., Qoratosh ko'chasi, 1 uy (O'zbekiston Banklari Assosiasiyasi binosi), Ishonch telefoni: +998 555 500 500, Email: info@uzoka.uz, Veb-sayt manzili: <a href="https://fgd.uz">https://fgd.uz</a>